

Mashrabjon Ermatov

*O'zbekiston xalq hofizi,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori
E-mail: mashrabermatov24@gmail.com*

SUVORIY VA SAVTI SUVORIYLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola Xorazmning Suvoriyxonlik san'ati bilan bog'liq bo'lib, unda Suvoriylarning kelib chiqishi, musiqiy shakli, doira-ritmik uslubi, so'z va soz mutanosibliklari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: janr, katta ashula, qavoliy, Suvoriy, Savti, diyralishma, chapandoz, kajhang, xushparda, go'yanda, yakparda.

SUVARI AND SAVTI SUVARI

Abstract. This article is related to the art of the Suvari Khanate of Khorezm, in which we will consider the origin of the Suvari songs, their musical form, circular-rhythmic style, words and word proportions.

Keywords: genre, large song, qawwali, Suvari, Savti Suvari, circular rhythmic style, horseman (chapandoz), ornamented melodic turn (kajhang), melodious mode (khushparda), singer (goyanda), single mode (yakparda).

Suvoriyxonlik san'ati O'zbekistonning Xorazm vohasiga mansub janrlardan biridir. Bu san'atning qanchalik qadimiy ekanligini xonandalik, ya'ni ovoz san'atining vujudga kelishi bilan bog'lash mumkin. Qolaversa, bu asarlar suvoralar deb atalib, xos davralarda ijro etilgan va ijrochilik san'ati suvoriyxonlik deb alohida hurmat bilan tilga olingan. Xorazm suvoriylari butun bir ovoz san'ati dunyosida keng tarqalgan aytimlar toifasiga mansubdir. Uning shakli nihoyatda xilma-xil. Milliy musiqa merosimizda ma'no-mohiyat jihatidan Suvoralarga monand yo'llar sifatida Farg'ona-Toshkent vohalarida tomir otgan "Katta ashula"larni misol keltirishimiz mumkin. Ko'rinish jihatidan Xorazm suvoriylari katta ashulalardan sezilarli farq qiladi. Professor Otanazar Matyakubovning Ozod Ibrohimovning "Sahih Suvoriylar" kitobiga yozgan so'z boshida shunday deyiladi: "Suvoriylarni Hindiston musulmonlari orasida hanuzgacha e'zozlanib kelinayotgan

“Qavvoliy”larga o‘xshatish mumkin. Ulamolar fikriga ko‘ra, qavvoliylarni Shahobuddin Suhravardiy sulukiga mansub go‘yandalar bir vaqtlar O‘rta Osiyodan Hindistonga ko‘chirgan. Qavvoliy bilan suvoriylar o‘rtasida yana bir bog‘liqlik shuki, o‘tmishda arabcha “qavvol”, “go‘yanda” tushunchalari aytuvchi, yoki so‘z aytuvchisi ma’nolarida qo‘llanishgan. O‘zimizda ham suvoriyxonlar hanuzgacha go‘yanda deb yuritiladi” [2, 4-bet].

Suvoriylar ikki xonandaning aytishuvi yoki bellashuvi, ya’ni diyralishmalari bilan ham mashhur bo‘lgan. Ma’lumki, qadimda Xorazmda maqomlarning yo‘llarini o‘zgartirish yoki buzish qattiq jazolangan, bu musiqalar orqali xonandalarning bellashuvlarini uyushtirish ta’qiqlangan. Suvoriy janri esa o‘zining badihago‘ylikka, ya’ni improvizatsiyaga moyilligi bilan ham diyralishmalar uyushtirish uchun qulay bo‘lgan. Ayniqsa, keng davralar, katta to‘y yoki sayil bayramlar o‘tkaziladigan bo‘lsa, bunda katta Qo‘qon aravaning bir g‘ildiragi o‘qi bilan chiqarib olinib, yerga qazib ko‘milgan va yuqorida qolgan g‘ildiragining ustiga gilam hamda ko‘rpachalar to‘shalib, xonandalar unga chiqib o‘tirishgan. Bu yog‘idan yigitlar g‘ildirakni hofizning ovozi barcha xaloyiqqa teng yetib borishi uchun sekin, bir maromda aylantirib turishgan. Bunday “aylanma sahna” davraning ikki burchagiga o‘rnatilib, qaysi hofiz ustun chiqsa davra g‘olib tomonni o‘rab olar, mag‘lub esa davradan tashqarida qolib ketar ekan. Yoki keng davraga yaxshi eshitilishi uchun katta darvoza eshigini “taxtiravon” sifatida yasab ustiga hofizlarni chiqarib tagidan yigitlar davra aylantirib ko‘tarib yurishgan.

Diyralishma – aytishuv musobaqalarining eng yuksak namunalari ko‘pchilik to‘y va sayillardan tashqari Xivadagi Qalandarxona, Boboris buva, Go‘zli buva, Sulton Uvays buva kabi muqaddas qadamjolarda o‘tkazilgan. Bu diyralishmalar nafaqat xalq orasida, balki xonlar davrasida ham ijro qilingan. Bunda xonandalar ovozining barcha sifatlari va muxammaslarning ko‘p bilishi namoyon bo‘lgan. Qaysi bir xonanda charchasa, ovozi yuqori pardalarga yetmay qolsa, biladigan muxammaslari tugasa yoki esidan chiqsa mag‘lub hisoblanib, jazolangan. G‘olib xonanda esa yuksak mukofotlangan.[3, 27-bet]

Suvoriyxonlik janrida asosiy maqsad so'z aytmoq bo'lgani uchun muxammaslar aniq bir Shoir ijodiga mansub bo'lmog'i lozim, ya'ni Bedilxonlik, Navoiyxonlik, Ogahiyxonlik va xokazo. Suvoriyxonlik san'ati xonandalari uchun keng ko'lamli ovoz, pastki pardalari to'liq, o'rta va yuqori registrlari jarangdor, so'zga nisbatan hissiyotlilik asosiy xususiyatlaridan biridir.

Hozirgi kunda suvoriylarning beshta asosiy va bir nechta atoqli xonandalarimiz tomonidan bastalangan ko'rinishlari mavjud. Shulardan "Ona suvoriy", "Chapandozi suvoriy", "Yak parda suvoriy", "Kajhang suvoriy", "Xush parda suvoriy" asosiylari va "Oltinchi suvoriy", "Indamas suvoriy", "Kalta suvoriy", "Go'jaiy suvoriy", "Nim parda suvoriy" kabi keyingi ustozlar tomonidan nazirago'ylik asosida yaratilganlari mavjud.

Suvoriylarning onasi bo'lmish "Katta suvoriy", asosan, suvoriylar ichida eng yirigi bo'lib, barcha suvoriylarning parda asoslari katta suvoriydan olingan. Shu sababli u katta yoki ona suvoriy deyiladi. Ustozlarning ta'kidlashicha ona suvoriy dastlab Navoiy, Lutfiy, Jomiy kabi buyuk shoirlarning muxammaslarida ham ijro etilgan. Umuman suvoriylar she'riy vaznlarning muxammas deb nomlanuvchi turida ijro qilinadi. Suvoriylarning musiqiy asosi, ya'ni, pardalari va doira usuli bir xil lekin musiqaaning rivojlanishi turlicha shaklda ifodalanadi. Cholg'u Muqaddimadan keyin muxammasning birinchi beshligi ijro qilinadi. Muxammaslarning ikkinchi va uchinchi beshlik orasidagi cholg'u qismlari deyarli farq qilmaydi. Ammo to'rtinchi muxammasdan boshlab asar avjga intilganidan so'ng pardalar o'zgarishi ro'y beradi. Beshinchi muxammas avj pardalarida ijro qilinib, oltinchi muxammas furovard, ya'ni, tushirim, asarning yakunlovchi misralari aytilib, nihoyasiga yetadi. E'tibor bering suvoralar tuzilishi ham maqom asarlarining tuzilishiga o'xshab ketadi. Aytib o'tilganidek, suvoriylarning doira usullari deyarli bir xil, ammo tez yoki vazmin suratda ijro etilishi go'yanda va davrani egallab o'tirgan shinavandalarning ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi. Suvoriylarning ijrosi juda murakkab, eshituvchi tomonidan buni sezish qiyin, albatta. Lekin xonandalarning ta'kidlashicha, bu asarlarning ijrosi uchun xonandada barcha musiqiy iqtidor bo'lishi shart.

Chapandozi Suvoriy

Mashrab muhammasi

$\text{♩} = 80$



Ma ni_ o lam_ a ro_ Maj_ nu ni be_

sar qil di yu ket di, Bo shim g'a sol_ di sav_ do_

ni qa lan_ dar qil di yu ket di, Di lim_ ni qal' a si ni_

buz di yu, ab tar_ qil di yu_ ket di, Qo'y ib_ ko'k sim_

ga o tash_ ni sa man_ dar qil di yu ket di

Ko' zim_ ter mul_ ti rib_ ras_

voyi_ Mah_ shar qil di yu ket di.

Qadimda Xorazmlik xonandalar ma'lum kamolotga yetganlaridan so'ng, dastlab maqom ijro qilib, keyinchalik suvoriylar aytishga ustozlar tomonidan izn berilgan. Demak, suvoriylar ijrosi maqomlar ijrosidanda murakkabroq sanaladi.

Suvoriylardan yana biri “Chapandozi suvoriy” tuzilishi jihatidan eng yirik suvoriylardan biridir. Chapandoz atamasi bilasizki, maqomlarda ham uchraydi. Bu doira usuliga nisbat berilib, Talqin doira usulining aksi, ya’ni teskari andoza deb yuritiladi. Aytishlaricha, suvoriylar dastlab umuman doira usulisiz ijro etilgan ekan. Doira usuli bilan ijro uslubini birinchi bo’lib, O’zbekiston xalq hofizi Hojixon Boltayev boshlab bergan ekan. Xorazmda suvoriylar dastlab yakka dutorda ijro qilinib, keyinchalik Hojixon ustozning tor sozini o’ziga jo’rnavez qilganlaridan so’ng doira cholg’usi qo’shilgan. Ma’lumki, dutor sozi musiqani jaranglatish bilan birga kuy ritmini, ya’ni doira usulini ham o’z zarblarida mujassamlashtirgan. Tor sozida usulni berish imkoniyati cheklanganligi sababli doira cholg’usiga muhtojlik sezilgan va shu yo’sinda qo’llanishgan. Chapandoz atamasi orqali suvoriylarda kuy yo’liga nisbat beriladi. Doira usuli jihatidan olib qaraydigan bo’lsak suvoriylarning doira usullari deyarli bir xil. Lekin kuy yo’li jihatidan ular boshqa-boshqa asarlardir. Barcha suvoriylar asarning tonikasidan boshlanadi, chapandozi suvoriy esa cholg’u Muqaddimasidan tashqari ovoz yo’li to’rtinchi pardasidan, ya’ni ikki yarim ton yuqoridan, domenanto intervalidan boshlanadi. Bu holat suvoriylar qonuniyatlarini chetlab o’tishi sababli chapandozi suvoriy, deyilgan bo’lishi ham mumkin. Chapandozi suvoriy – suvoriylar turkumida katta suvoriydan keyin turadi. Murakkabligi, kengligi, jihatdan katta suvoriydan qolishmaydi. Lekin barcha suvoriylarning parda, ya’ni musiqiy asoslari va doira usullari katta suvoriydan olingaligi tufayli Chapandozi suvoriy ikkinchi o’ringa tushib qolgan. Xivalik mashhur dostonchi Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullayev aytim janrlari haqida shunday degan edi: “Maqom soz etmoq, Suvoriy so’z aytmoq, Dostonchilik esa voqelikdir”. Maqom ma’lumki, muttasil qonun qoidalarga rioya qiluvchi musiqiy janrdir. Unda birinchi o’rinda aniq musiqiy parda va ritm, ya’ni doira usuli asosiy negizlaridan biri sanaladi. Suvoriy esa o’zining badihago’ylikka improvizatsiyaga moyilligi hamda barcha she’riy vaznlarni musiqaga bog’lab ijro qila olish xususiyati bilan mashhurdir. Dostonchilik san’ati esa asardagi barcha personaj, obrazlarni musiqa orqali ko’rsatib bera olishi bilan go’zaldir.

Asosiy Suvoralardan biri “Yak parda suvoriy” bo‘lib, uning nomlanishi parda, ya’ni tovushqator ma’nosida keladi. U bir xil pardalar majmuasidan tashkil topgan kuy yo‘liga ega bo‘lgan suvoriydir. Boshqa suvoriylar pardalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, asar yuqori pardalarga yaqinlashgan sari o‘zgara boradi. Masalan, chapandozi suvoriy kuy yo‘lini tahlil qiladigan bo‘lsak muxammasning birinchi beshligi daromad qismi, ikkinchi beshlik miyonhat deb yuritiladi, bu oktava yuqoridan boshlanib, tonikaga, ya’ni boshlang‘ich pardaga qaytadi. To‘rtinchi beshlikdan pardalar minorga o‘zgaradi. Beshinchi beshlik major pardalarida eng avj qismi ijro qilinib, oltinchi beshlik o‘sha majorda va furovard qismi bilan yakunlanadi. Yak parda suvoriy esa faqat major ladida bo‘lib, boshqa pardalarga o‘tganida ham major ladida qolaveradi. Bu suvoriy yana “Qarichmoniy suvoriy” deb ham yuritiladi, sababi uni yaratgan Xojixon Boltayev Xorazm viloyati Honqa shahridagi Qarichmoniy qishlog‘ida tug‘ilgan va yashab ijod etgan. Suvoriylar keng davralarda ijro qilinadigan bo‘lsa, albatta, uning ketidan Savti Suvoralar ham ijro qilinishi xonanda uchun majburiydir. Chunki qadimdan suvoriyxonlik san’atida bir yirik asarni nazira qilingan qismi bilan ijro qilinishi rasm bo‘lgan. Savti suvoriylar “Shashmaqom”ning ikkinchi guruh sho‘balariga o‘xshab nazirago‘ylik asosida yaralgan asarlar sirasiga kiradi. Ularning kuy yo‘li nisbatan murakkab bo‘lmasa-da, xonandadan maxsus tajriba va ko‘nikmalarni talab etadi. Aniqrog‘i, maqomlar ijrosi bilan shug‘ullanib yurgan xonandalar Savti suvoriylar ijrosiga kelganda asarni ko‘p vaqt mobaynida tinglab yurib, asta-sekin o‘rganib, ijro qilsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Suvoriylarning ijrosi uchun esa dastlab Savti suvoriylarni o‘rganmoq lozim.

Suvoriy janri tarkibidagi navbatdagi asar Kajhang suvoriydir. Dastlab Kajhang atamasining lug‘aviy ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, “kaj” so‘zi injiq ma’nosida keladi. Hang esa suvoriylarning avj qismlarida keladigan so‘zsiz “o” yoki “oh yoray” deb ijro qilinadigan musiqiy matnidir. Bundan tashqari ushbu suvoriy hanglari tufayli injiq suvoriy deb ham ataladi. Haqiqatdan ham bu suvoriyning hanglari xonandalar ijrosi uchun noqulaydir. Birinchidan, bu suvoriyning avj qismini ijro qilish uchun xonandada yetarlicha ovoz ishlatish malakasi bo‘lmog‘i lozim. Ikkinchidan, bu yuqori pardalarda ijro qilish

eshitilishidan ko'ra murakkabroqdir. Chunki ovozda yuqori pardalarda bir marta avj olish nisbatan qiynchilik tug'dirmaydi, lekin avjda ovozni o'ynatish, so'z talaffuzini yamlamay, chaynalmay to'liq aytish, bir xatni ikkinchi xatga nafas olishsiz amalga oshirish ovoz uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi. Uchinchidan, bu yuqori pardalarni chiranishsiz kuylash ko'zda tutiladi. Bu amallar xonanda tomonidan to'liq bajarilmasa bu suvoriy maromiga yetmagan deb hisoblanadi. Keksa san'atkor ustozlarning aytishicha, "Kajhang suvoriy" Mang'itlik atoqli go'yanda Bobojon bola tomonidan yaratilgan. Yana bir o'zining nafis pardalari, go'zal ohangi va noyob tuzilishi bilan Shinavandalarga hush yoqadigan Xush parda suvoriy haqida ham to'xtalamiz. Bu asar qajhang suvoriyga pardalari bilan o'xshab ketadi. Lekin Chapandozi suvoriy kabi to'rtinchi pardadan boshlanadi. Avj qismlarida kajhang suvoriyga nisbatan injiq emas, aksincha, soddaroq tuzilishga ega. Avj qismlari yuqori pardalarda ijro qilinsa-da, o'sha joyda muqim o'rnamashmaydi, ya'ni avjga tegib o'tishi ovoz xususiyatlariga ortiqcha qiynchilik tug'dirmaydi. Kajhang suvoriydan farqli tezroq rusumda, yengilroq ijro etiladi. Shuning uchun ham u Xush parda deb yuritiladi. Qadimda Kajhang suvoriy minor ladida, Xush parda suvoriy esa majorda ijro etilgan ekan.

Ma'lumki, beshta asosiy suvoriylardan tashqari mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan suvoriylar ham bor. Shulardan biri Komiljon Otaniyozov yaratgan "Oltinchi suvoriy"dir. Bu asar yaratilish jarayonida mavjud suvoriylar uslubidan andoza olingan bo'lib, ko'proq xalq yo'lidagi ashulalarga o'xshab ketadi. Boshlanish qismi major, ya'ni ochiq tovushlardagi pardatuzukni eslatadigan cholg'u Muqaddima bilan boshlanadi. Suvoriy janrlarida, asosan, musiqiy cholg'u qismi pardalar majmuasi bir xil bo'lsada musiqiy qismi boshqa musiqa chalishi, ya'ni musiqiy til bilan aytganda konon sifatida emas, balki rokoxord tuzilishli shakli bilan aytim yo'lidan farq qiladi. Lekin oltinchi suvoriy bu qoidalaridan biroz xolidir. Boshlanishi cholg'u muqaddimasi aytim yo'lining boshlanish qismi bilan bir xil. Kadensiya, ya'ni lad o'zgaradigan to'rtinchi beshlik, yoki muxammasgacha aytim yo'li o'zgarsa-da, kuy yo'li bir xil takrorlanadi. Pardalar almashganda esa cholg'u

qismlari boshqa suvoriylardagi cholg'u yo'lini takrorlaydi avj va furovard qismlari bilan yakun topadi.

O'zbekiston xalq hofizi Quvondiq Iskandarovning Huvaydo muxammasiga bastalagan "Indamas suvoriy" asarining tuzilishi suvoriylar qonuniyatiga bo'ysunmaydi, ya'ni cholg'u Muqaddima va muxammas o'qiladigan musiqiy mavzularning shakli bir xil, vaholanki, suvoriylarda ular bir-biridan farq qilishi lozim. Bu bir tomoni, yana boshqa tarafdin asarning tuzilishiga e'tibor bersak. Suvoriyxonlik san'ati aslida so'z aytish san'ati bo'lganligi uchun undagi she'riy satrlarning o'qilishi o'ziga xosdir. Har bir satr bir tekisda tushunarli musiqiy matnga ega. So'z ijro qilinadigan musiqiy matnda o'zgarishlar nisbatan kam uchraydi. Barcha pardadan pardaga sakrash hollari so'zsiz musiqiy mavzularda amalga oshiriladi. Ammo "Indamas suvoriyning" aynan shu janrga xos xislatlari juda ko'p, bu ayniqsa, doira usulida musiqiy matnning yo'nalishida yaqqol seziladi.

Savti Suvoriy

Fuzuliy g'azali
♩ = 100

Har ki to ba kim la bing.
La' ling Xa di sin yo za lar, Rish ta
yi jon bir la ishq ah li o ning she ro za lar.

Ozod Ibrohimovning "Go'jayi suvoriy" asari o'zi tug'ilib o'sgan Go'ja qishlog'i sharafiga nomlangan. Ustoz xonanda Matnazar Xudoynazarovning "Kalta suvoriy"si ham ma'lum bo'lib, u Devoniyni: Qong'a botsin jismim ishq o'tiga, so'zon o'lmasa, deb boshlanadigan muxammasi bilan ijro qilingan. Kalta deyilishiga sabab musiqa qolipi muxammas qolipidan ortiqroqdir. Ya'ni musiqadan farqli ravishda she'r satrlari kaltaroq bo'ladi. U boshqa suvoriylardan farqli minor ladida tuzilgan. Bular qatoriga yana Rahmatjon Qurbonovning "Nim parda suvoriy" asarini kiritish mumkin. Uning nim parda deb nomlanishiga sabab tovushqatorining minor tuzilishida ekanligi va kichik yarim parda qochirimi bor, degan ma'noni bildiradi.

Suvoriylarning Savtilari ham mavjud bo'lib, ular "Savti suvoriy" deb ataladi. Savt so'zining ma'nosi haqida Isxoq Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobida shunday yozilgan: "Savt arabcha so'z bo'lib, "ohang" va "musiqa tovushi" ma'nolarida keladi. Manbaalarda keltirilgan musiqa istilohida uning aks-sado ma'nosi ham bor. U tayyor bir kuy yoki ashulaga taqlid qilinib, ma'lum bastakorlik qoidalari asosida javob tariqasida yaratiladigan asardir" [1, 64-bet]. Maqomlarda Savtlar ikkinchi guruh sho'balariga kiritilgan va birinchi guruh sho'balariga nazira sifatida bastalangan. Suvoriyxonlik san'atida ham maqomlardagi kabi nazira sifatida yaratilgan deyishimiz mumkin. Chunki Savti Suvoralarning aksariyati Ona suvoriydan olingan bo'lib, pardalari ham musiqiy tuzilish jihatidan ham suvoriylarning tezroq va jozibadorroq turini ko'rsatadi. Savti suvoriylar, asosan, g'azallarga bastalanadi. Shunga qaramay ba'zan muxammas va musaddaslarga ham aytiladi. O'zbekiston xalq hofizi Quvondiq Iskandarov Savti suvoriylar borasida shunday degan edilar: "Savti suvoriylarning o'n uch turi mavjud, hatto hozirgi kunda qo'shiqqa aylanib ketgan "olma pishganda keling" deb aytiladigan asarni aslida Madrahim Yoqubov Sheroziy va Jumanazar Abdurazzoqovlar Savti suvoriy shaklida aytgan edi. Bu asarni "Gul Ufori suvoriy" deb atashar edi. U Savti suvoriylardan ham tezroq ijro etilgani uchun Ufori deyilgan. Hatto bunga raqqosalar raqsga tushar edilar. Lekin "Gul Ufori suvoriy"ni men Hojixon Boltayev yoki boshqa ustozlarim ijrosida eshitmaganman. Menimcha, bu asarlar majmuasi, ya'ni gul Ufori suvoriylar to'ylarda davrani qizdirish maqsadida yaratilgan." [4, 12-bet]

Diyralishmalarda suvoriylardan keyin Savti suvoriylar ijro qilinadigan bo'lsa, bu ikkala tomonning teng tortisha olganidan dalolat bergan. Agar bir tomon yengiladigan bo'lsa Savti suvoriyni g'olib bo'lgan tomongina ijro etadi va tengsiz xonanda ekanligini jo'shqinlik bilan namoyon etadi. Shuning uchun ham Savti suvoriylar tezroq, jo'shqinroq va jozibaliroq ijro etiladigan asarlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari Savti suvoriylarga turli shakldagi she'rlar mos keladi, faqatgina uning musiqasi mos ravishda tanlansa bo'lgani.

Jo'raxon Sultonov ijro etgan "Besh parda suvoriy" asari ham suvoriy janriga mansub bo'lib, ijro turi Farg'ona vodiysiga xosdir. Yoshi ulug' san'atkorlarimizning

aytishiga ko'ra O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonov O'zbekiston xalq artisti Hojixon Boltayev bilan qalin do'st bo'lgan. Ular juda ahil bo'lib, bilmagan narsalarini bir-biridan o'rganib, malaka almashganlar. "Besh parda suvoriy" ana shu jarayonda dunyoga kelgan asar sanaladi. Aslida mazkur suvoriy Xorazm suvoriyxonlik maktabi ijrosida kuzatilmagan. Boshlang'ich tovushi, ya'ni tonikasidan bir oktava yuqoridan boshlanib, beshinchi parda tayanch vazifasini o'tagani tufayli ushbu asar "Besh parda suvoriy" deb atalgan. Bu asarga Jo'raxon Sultonov ijodiy yondoshib, unga qadar mavjud bo'lgan Suvoralardan andoza olib, suvoriylarning shaklini bir oz o'zgartirib, vodiy musiqiy yo'llariga moslashtirgan va yangi asar dunyoga kelgan. Bundan tashqari ko'plab Savti suvoriylar va "Feruz" turkum ashulalari ham vodiy ijro uslubiga moslashtirilgan. Buning evaziga vodiy san'atkorlaridan Xorazm hofizlari "Ul kun jonon", "Ushshoq", "Tanovar"lar turkumini o'rganganlar. Ta'kidlash joizki, bu asarlar hozirgi kunda ham Xorazmda juda mashhur. Xorazmlik muxlislar bu asarlarni ham suvoriy deb ataydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. – Тошкент: 1954.
2. Ibragimov O. Sahih Suvoriylar. – Toshkent: 2001.
3. Matyukubov Sh. An'anaviy ijrochilik tarixi. – Toshkent: 2015.
4. Xudoynazarov M. Quvondiq Iskandarov. – Toshkent: 2017.

